

Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng, o'quvchilarning charchab qolmasligi uchun harakatlanuvchi mashq yoki barmoq/ko'zlar gimnastikasini bajarishingiz mumkin.



Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, 1-chorak mobaynida biz nimalarni o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzularga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Kuzgi ta'til boshlanmoqda va men sizlarga maroqli dam olish, ta'til davrini qiziqarli, foydali va kashfiyotlarga to'la tarzda o'tkazishni tilayman!

Biz 1-chorakda birgalikda ishladik, erishgan yutuqlarimiz tirishqoqligimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimiyy munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

Men sizlarni ajoyib tasurotlar bilan keyingi chorakdagi darslarimda kutib qolaman! Xayr!

2-chorak

10-dars (9-mavzu). Vaqt. Hafta

Dars maqsadlari:

- 1. Ta'limiy:** o'quvchilarda vaqt, hafta haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish malakalari.
- 2. Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.

3. Rivojlantiruvchi: o'rganilayotgan hodisalarini tevarak-atrofdagi hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lмаган o'quvchilarni qayd qiladi.

Bu muhim! Darsda mustahkamlash bosqichi qanday o'tkaziladi?

O'rganilgan bilimlarni qayta ko'rib chiqish juda muhim, aks holda ular unutiladi.

Shuning uchun eslatmalar, konspektlar, qo'llanmalar yoki boshqa xotiranomalar kerak. Tushunmagan holatlarga oydinlik kiritish uchun esa savollar berilishi lozim.

Muayyan harakat mahoratini o'zlashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak:

- ◆ **Tushuntirish**

O'quvchilar u yoki bu harakat nima uchun amalga oshirilishini tushunishlari kerak. Ular ushbu harakat bilan bog'liq har qanday ma'lumotni bilishlari lozim.

- ◆ **Faoliyat texnologiyasi**

O'quvchilar nimani qanday qilish kerakligini aniq tushunishlari lozim. Muayyan vaziyatni yechish (keys) yoki tahlil qilish mavzu mohiyatining tushunilishini osonlashtiradi.

Bu bilimni qabul qilish va vaziyatga moslashish mumkin bo'lgan to'g'ri harakat qilish usulini ko'rishga imkon beradi.

- ◆ **Amaliyot**

Amaliyot o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida juda muhim.

- ◆ **Xatolarni tekshirish va to'g'rakash**

O'quvchilar bajargan ishining sifati, birinchi navbatda, o'zлari, keyin esa, qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va tuzatilishi kerak.

- ◆ **Eslab qolish uchun qaydlar**

O'quvchilarga u yoki bu shakldagi qaydlar zarur. Bu eslatmalar, konspektlar, kitob, ilova va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.

- ◆ **Qayta ko'rib chiqish**

Yangi tajriba unutilmasligi uchun mavjud tajriba qayta ko'rib chiqilishi kerak.

- ◆ **Baholash**

O'quvchi va o'qituvchilar muayyan faoliyatni o'zlashtirishga ishonch hosil qilishi uchun olingan bilimlarni real sharoitlarda sinab ko'rishlari kerak.

- ◆ **Savol berish**

O'quvchilarga har doim savol berish imkoniyati berilishi kerak.

➡ Xulosa o'rnila, qayta ko'rib chiqish va amaliyot elementlari biror mahorat o'zlashtirilgunga qadar doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Ya'ni, o'rganilgan narsalarning umumiy ko'rinishi xulosa sifatida xotirada muhrlanadi.

Asosiy qism (25 daqiqa).

Tushuntirish uchun material.

Kuzgi ta'tildan keyingi Tabiiy fanlardan birinchi darsimiz. Ta'tilingiz maroqli o'tdimi, o'zingiz uchun nimalarni kashf qildingiz? Qanday qiziqarli filmlarni tomosha qildingiz?

Kuzgi ta'tilimiz ortda qoldi, ya'ni u o'tmishga aylandi. Navbatdagi ta'til esa kelajakda.

Vaqt to'xtamay o'taveradi. Ilgari bo'lib o'tgan voqealar o'tmish, **o'tgan zamon** deyiladi. Hali bo'lмаган voqealar kelajak, **kelasi zamon** deyiladi. Biz esa bugungi kunda, **hozirgi zamon**da yashayapmiz.



O'tmish

Bugun

Kelajak

Ayting-chi, o'tmishda nimalar bo'lgan. Bugungi kunni tasvirlang. Kelajakni qanday tasavvur qilyapsiz? Mazkur savol-javob o'quvchilarda nutqni rivojlantiradi. Vaqt bilan bog'liq o'zgarishlarni mantiqan bog'lay olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Darslikning 32-betidagi topshiriqni bajaramiz. Taqvimga qarab, savollarga javob bering. Mazkur topshiriq juftlikda bajariladi.

1. Taqvimdagi oy haftaning qaysi kunidan boshlangan?

2. Bu oyning o'n ikkinchi sanasi haftaning qaysi kuniga to'g'ri keladi? Yigirmanchi sanasi-chi?

3. Qaysi sanalar dushanbag'a to'g'ri keladi?

Dekabr	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma
			1	2	3
6	7	8	9	10	
13	14	15	16	17	
20	21	22	23	24	
27	28	29	30	31	

4. Bu oy haftanining qaysi kunida tugaydi?

Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng, o'quvchilarning charchab qolmasligi uchun harakatlanuvchi mashq yoki barmoq/ko'zlar gimnastikasini bajarishingiz mumkin.



Mustahkamlash qismi:

Topshiriqni bajarishni davom ettiramiz. Qahramonlarimiz dam olish kunlarini qanday o'tkazdilar? Siz dam olish kunini qanday o'tkazdingiz?



Ish kunlari – dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Shanba va yakshanba esa **dam olish kunlari**.

Sizning samimiyligini va do'stona munosabatingiz o'quvchilar kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi va ulardag'i shu ruhiy holatni kreativlikka yo'naltirish, ularni maqtash orqali motivatsiyasini oshirish mumkin.



Baholash va yakunlash qismi (5 daqiqa):

Ayting-chi, bugun biz nimani o'rgandik? Yana qaysi fanlarda shu mavzuga oid ma'lumotlar olgansiz? Savol-javob asosida umumlashtirish amalga oshiriladi.

Biz o'z sinfdoshlarimiz bilan birligda ishladik, erishgan yutuqlarimiz o'qishga qiziqishimiz, do'stligimiz va bir-birimizga samimi munosabatimiz tufaylidir. Men sizlar bilan faxrlanaman! Keling o'zimiz va sinfdoshlarimizni olqishlab qo'yamiz! Barakalla! Ofarin!

11-dars (10-mavzu). Yil fasllari

Dars maqsadlari:

- Ta'limiy:** o'quvchilarda yil fasllari haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish malakalari.
- Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
- Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarini tevarak-atrofdagi hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lмаган o'quvchilarni qayd qiladi.

Bu muhim! Amaliy darslarda o'quvchiga qanday yordamlar zarur?

Amaliy ishdan kelib chiqqan anglash, tushunib yetishlar, yangi fikrlar va yechimlar ongli ravishda va muvaffaqiyatli bajarilgan xatti-harakatlarning ijobiyligi natijasidir. Amaliy darslarda o'quvchilarga quyidagi yordamlar zarur:



Amaliy darsni boshqarish

O'qituvchi amalga oshirishning ahamiyatini ta'kidlashi va tasavvur darajasidan amaliy ish-harakatlarga asta-sekin o'tishni ta'minlashi kerak. Ko'rish va idrok qilishning har bir bosqichidan so'ng, amalga oshirish bosqichi tashkil qilinishi lozim.